

**Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan
MA’LUMOT**

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefonini (**99 353 93 54**)ga 13-17 mart kunlari **217 ta** fuqarolar murojaat qildi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligidan kelgan “**sms**” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga hafta davomida imtiyozga ega fuqarolardan **e’tirozli 7(3,2%)ta og‘zaki murojaatlar** kelib tushdi.

Shulardan:

Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **bemor** davolash sifatidan va shifokorlar qarovidan;

Bolalar milliy tibbiyat markazi imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **bemor** shifokorlar tomonidan davolanish uchun **dori vositalari yo‘qligi uchun dorilar sotib olishga ro‘yxatlar yozib berayotganligi** yuzasidan **norozieligini bildirib** Jamg‘armaning ishonch telefoniga **og‘zaki murojaatlar** qildilar.

Ushbu murojaatlar bo‘yicha shifoxona mas’ullariga telefon orqali ma’lumotlari berildi, tibbiyat muassasa mas’ullariga bemorlar e’tirozi o‘rinliligi yuzasidan tushuntirildi, **og‘zaki murojaatlar ijobiylar hal qilindi.**

Xorazm, Navoiy, Samarcand, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida imtiyozli toifaga kiruvchi fuqarolardan Jamg‘arma ishonch telefoniga imtiyozli yo‘llanmadan foydalananish tartibi yuzasidan **og‘zaki murojaatlar** qilishdi. Imtiyozli toifaga kiruvchi fuqarolarning murojaatlari bo‘yicha viloyatdagi bosh mutaxassislarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyuldaggi PQ-5199-tonli qarorida belgilangan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga imtiyozli yo‘llanma orqali barcha bemorlarga ko‘rsatiladigan **tibbiy xizmatlar bepul bo‘lishi ya’ni Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan qoplab berilishi yuzasidan joylarda fuqarolarga tushuntirish ishlari olib borishi shartligi ta’kidlandi.**

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
Matbuot xizmati.**